

## ABDURAUF FITRATNING ILMIY PEDAGOGIK QARASHLARI

*Shahnoza Shovkatova Sirojiddin qizi*

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti*

*“Boshlang ‘ich ta’lim” yo ‘nalishi*

*2-kurs magistranti*

*@shovkatova0810@gmail.com*

**Annotatsiya:** Abdurauf Fitrat Turkiston jadidchiligining rivojida muhim rol o‘ynagan hamda o‘z asarlari bilan ushbu harakat g‘oyalarining yoyilishiga juda katta hissa qo‘shgani, Fitratning diniy islohotchilik yo‘nalishidagi faoliyati, Abdurauf Fitratning “Oila” Asaridagi pedagogik qarashlari mazmuni, farzand tarbiyasi, oilaning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning insonlar komilligiga ta’siri xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik ta’lim, tarbiya, talaba, mustaqil hayot, ilmiy-nazariy, asos, takomillashtirish, Abdurauf Fitrat, oila, ehtiyoj, baxtli bo‘lish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar, o‘z fikri, yuksak ma’naviyat.

Abdurauf Fitrat — o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori. Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada ta’lim olgan. Inqilobga qadar O‘rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma’naviy rahamosiga aylangan. Do‘sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan.

Jadidchilik xarakatining ilg‘or vakillaridan biri bola tarbiyasi asoslari haqida so‘zlaganda eng avvalo oilaviy tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratadi. Fitrat bu haqda shunday yozadi: «Ma’lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag‘rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Chunki ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi. Shaxs ruxiyati, axloq javxari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi». Demak, Fitrat nazarida oilaviy tarbiya, tarbiyaning eng muhim qismi» va bu tarbiya jarayonida shaxs uch jihatdan shakllanadi: ruxiy, axloqiy va odatiy (xarakter). Bu tushunchalarni biz Fitratning bola tarbiyasi asoslariga oid birinchi fikri sifatida qabul qilamiz. Xaqiqatan ham bola oilada ilk shakllana boshlaydi, dastlabki axloqiy tushunchalarni qabul qiladi va birinchi qiliqlarini (xarakter xususiyatlarini) shakllantiradi. Bu davrni olimlarimiz samimiy «taqlid davri» va milliy tarbiyaning asosi deb ataydilar. Fitrat ham bu masalani

izoxlagach, oilaviy tarbiyada nimalarga e'tibor berish va uning asoslari nimadan iborat ekanligini sharxlashga o'tadi.

Shular jumlasiga "Rahbari najot" asarini kiritishimiz mumkin. Adib ushbu asarida ta'limning bola hayotida alohida o'rin egallaganligi va tarbiya bilan ta'lim har qanday vaziyatda bir birini to'ldirib turishi va bir biri bilan chambarchas bog'liqligi to'g'risida va yana asarning uchinchi bobi oila masalalariga bag'ishlanganligi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalar asosan uning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida berilgan. Oila asradagi axloqiylik va milliy o'zlikni anglash masalalari barcha yoshlarni ilm ma'rifatga va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Oila asarida ham tanqidiy ham da'vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonini ozod ko'rishni istaydi buning uchun esa har bir turkistonlik odob-axloq va erk o'chog'i bo'lishi lozim edi. Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi uqtiradi - bunda:

- 1) jismoniy tarbiya –salomatlik;
- 2) aqliy tarbiya -sog'lom fikrlilik;
- 3) axloqiy tarbiya -axloqi sano;

ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Oilaning asosiy vazifasi yosh avlodni tarbiyalashdir. Bolalar axloqiy tarbiyasida avvalo o'zi yashayotgan atrof-muhit muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olim ijtimoiy muhitning bola tarbiyasidagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatib beradi. U bolalarni suvga o'xshatadi: "Suv qaysi rangli idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundaki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolini o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar". Bu fikrlari bilan aytmoqchimiz bola tarbiyasida faqatgina maktab emas balki avvalo oila va jamoatchilik shug'ullanishi to'g'risida va oilada axloq tarbiyasi doirasida ota-onaning o'rni beqiyos ekanligi haqida aytib o'tgan.

Abdurauf Fitrat o'z davrining yetuk pedagogi edi. Bu masala ayniqsa uning bola tarbiyasiga oid o'ziga xos qarashlarida yanada yaqqol namoyon bo'lgan. Avvalo ta'kidlash lozimki, Fitrat inson tarbiyasini uch bosqichga bo'lib ko'rsatadi:

Birinchi bosqich. Tug'ilishdan 8 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va bundan tarbiya ota —ona zimmasiga tushadi.

Ikkinchi bosqich, 8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bunda tarbiya maktab va Madrasa zimmasiga tushadi.

Uchinchi bosqich. 20 yoshdan boshlab umrining oxirigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bunda tarbiya «odamning o‘z boshiga tushadi».<sup>1</sup>

Tarbiyaning Fitrat belgilagan bu bosqichlar XX asr o‘zbek tarbiyashunosligidagi xolatni o‘zida ifodalaydi. Ayni paytda, 20 yoshdan boshlab odamda butunlay mustaqillik berilishi qiziqarli xol. Buning ma‘nosi shuki, Fitrat naznida shaxs 20 yoshida tarbiya ko‘rgan hisoblanadi va keyingilari unga qo‘shimchadir. Shu sababli o‘sha davrlarda maktab yoki madrasalardan ozod bo‘lgan kishilar o‘zlariga biror mutafakkirni Pir (Ustoz) bilib, barcha xarakatlarni u bilan bamaslaxat qilishgan. Maqsad— xayotda adashmaslik bo‘lgan.

Fitrat yozadi: «Bolalarning tarbiyasi — bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetkazish demakdir». Bu eng yorqin va aniq konsepsiyadir. Demak, bola tarbiyasida mana shu uch jixatga e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Fitratning bu kosepsiyasini xuddi shu yili (1915 yili) yozgan «Raxbari najot» asarida ham takrorlaydi: «Farzandingizni jismoniy, aqliy va ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing». XX asr boshlaridagi o‘zbek pedagogikasida bu qarash birmuncha ilg‘or qarash edi. Usha paytda Abdulla Avloniy, Xamza Xakimzoda Niyoziy kabilar ham darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari tuzishgan edi. Lekin ularda Fitrat singari pedagog konseptual fikrni o‘rtaga tashlashni uchratmaymiz.

Fitrat yozadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu- tan, aql va axloqdir...Agar saodat, izzat, osoyishtalik, roxat, sharaf, nomus va e‘tibor bizga kerak bo‘lsa, tezrok avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim». Bu chaqiriqda javoban Fitrat fikrini davom ettirib «ovrupaliklar farzandlarini yaxshi tarbiya qilganlar va shu sababli shonu shavkat darajasiga yetkanlar. Yana shuni ham aytardimki, farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetkazib, xayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axlok bilan chikarish zarur»,—deydi.

Fitrat axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasiga emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmasliklarini juda to‘g‘iri harakat deb biladi. Yana u bolalar axloqiga zararli bo‘lgan, yoshiga mos kelmaydigan kitoblarni bolalarning o‘qishlariga ruxsat bermaslik kerak deydi. Chunki o‘zi ta’kidlaganidek har qanday axloqida nuqsonlari bor inson o‘z-o‘zidan bola psixikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin, shuning uchun iloji boricha unday insonlarni ta’lim dargohidan uzoqroqda tutishi kerak. Va faqatgina uzoqda tutish bilan ish bitmaydi bunday tarbiyasida kamchiligi bor insonlar o‘z ustida ishlashari va o‘zlarini taftish qilishi uchun imkoniyat yaratish kerak.

Fitrat o‘z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shavqatli bo‘lish, o‘z manfaatlaridan xalq manfaatini yuqori

<sup>1</sup> H.Boltaboev XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. - Toshkent, 1996.

qo'yish g'oyalari ulug'laydi. U o'zining "Hind sayyohi", "Rahbari najot" singari asarlari orqali ma'rifatparvar va yozuvchi sifatida musulmonlarni, eng avvalo yoshlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, eng muhimi, o'zligini tanishga, fan-texnikani rivojlantirish uchun g'ayrat bilan o'qish o'rganishga undaydi.

Fitrat bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishi, bolaga qiyinlik qilmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yo juda qiyinlik qilsa u bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi. Fitratning pedagogik asarlarida yosh avlod uchun qo'llanma bo'luvchi hayotiy tarbiyaviy asarlardir. Ushbu asarda pedagogik-didaktik uslubdan ham mahorat bilan foydalanilgan.

Turkistonni va turkistonliklarni ozod ko'rish va milliy mustaqillik mafkurasi asarning ruhiga singdirilgan, uni o'qigan kishilar nafaqat axloqiy fazilatlar va ularga qanday erishish kerakligini, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nimayu, uni qanday qilib qo'lga kiritish mumkinligini anglatuvchi adibning qalbidagi so'zlarni qalban his qildirguvchui tarbiyaviy asardir. Oila asarida oilaga nisbatan qarashlari zaminini Qur'oni Karimda shu masala bo'yicha olg'a surilga fikr va g'oyalar tashkil etadi. Shuning uchun ham bu asar o'z zamonidagi taraqqiyparvar yoshlar uchun iliq kutib olingan va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kun uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki oila asosini to'g'iri qurmasdan va yosh avlodni to'g'iri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Qayerda oila munosabatlari mustahkam va intizomli va kuchli bo'ladigan bo'lsa jamiyat va davlat ham shunday bo'ladi. Mamlakat rivojlanishi uchun avvalo tarbiyani oiladan boshlash kerak, oilada muhit qanday bo'ladigan bo'lsa ushbu muhit jamiyat uchun ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oila Fitratning talqinida uch muhim komponentdan iborat:

- 1)Er
- 2)Xotin
- 3)Farzandlar

Ana shu uch komponentning har biri nozik spesefik jihatlarga ega. Chunki er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo. Ko'ramizki oila va farzand masalasi erkak va ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi balki ayni paytda millatning ham iqtidori, obro'-e'tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa Vatan mamlakatning yuragi demakdir. Oila masalasi o'z o'rnida uchga bo'linadi:

- 1)Millat;
- 2)Mamlakat;
- 3)Kishilik jamiyati:

degan uchlikni tashkil etuvchi omillar xalqni tashkil etadi. Mana shu uch bob birlashib butun bir xalqni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki biz qanchalik mamlakatni rivoj toptirishga harakat qilar ekanmiz avvalo oiladan boshlashimiz kerak barcha ishni oiladagi muhitga va tarbiyaga asosiy e'tiborni qaratishimiz kerak.

“Oila” asari Turkiston milliy uygʻonishida benihoya katta rol oʻynaydi. Ayni paytda ham ushbu asar maʼnaviy maʼrifiy ahamiyatini yoʻqotmagan holda hozirgi yoshlar uchun ham ahamiyatga molik. Asarning ikkinchi bobi farzand tarbiyasiga bagʻishlangan. Fitrat oʻz oʻrnida tarbiya muhimligi va uni oʻz oʻrnida uchga boʻlish mumkin deydi: Yani bular: aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya va ruhiy tarbiyani nazarda tutadi. Darhaqiqat bu uchulasi bir biri bilan chambarchas bogʻliq va bir-birini toʻldirib turadi va bolani komil shaxs qilib tarbiyalash uchun asosiy komponent hisoblanadi.<sup>2</sup>

Xulosa: “Bu dunyo kurash maydonidir, bu maydonning quroli sogʻlom jism-utan va aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz zang bosib chirib ketgan, Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor”. Bundan kelib chiqadiki bizning asosiy qurol aslahamiz yosh avloddir. Yosh avlodga qanchalik darajada yaxshi taʼlim tarbiya beradigan boʻlsak, ularda hozirdan bilim koʻnikma va malakalarni shakllantirib boradigan boʻlsak, ertangi kunda mamlakat ravnaqiga hissa qoʻshadigan farzandlar yetishib chiqadi. Axir muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov bekorga aytmagan: “Biz oldingi bizdan oʻtgan ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz, lekin hozirgi kunda faqatgina faxrlanishning oʻzi yetmaydi oʻzimiz ham ularga munosib avlod boʻlish uchun harakat qilishimiz kerak” deya taʼkidlagan. Shunday ekan mamlakat ravnaqi va xalq osoyishtaligi uchun oila juda katta ahamiyatga ega. Axir shu oilada Oʻzbekistonning ertangi egasi tarbiya topayapti.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uygʻonish. -Toshkent, Maʼnaviyat, 2002. 349 -373 -b;
2. Karimov N. Soʻnggi soʻz. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. -Toshkent, Maʼnaviyat, 2000. 203 -206 -b.
3. Gʻaniev I. Abdurauf Fitrat: Eʼtiqod va ijod.-Toshkent, Kamalak, 1994.
4. Abdurauf Fitrat dramalari poetikas Fil.fanl.dokt...diss. -Toshkent, 1998;
5. H.Boltaboev XX asr boshlari oʻzbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.
6. Tashkulov D. Osnovniy napravleniya politiko -pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XX -pervoe chetverti XX vv: Fals.fanl.dokt. diss.Avtoreferati, -Toshkent, 1995
7. Gʻoyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarinipedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b

<sup>2</sup> Gʻaniev I. Abdurauf Fitrat: Eʼtiqod va ijod.-Toshkent, Kamalak, 1994.